



*14-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
bosholang'ich sinf o'qituvchisi  
**Bozorova Dilobarning**  
O'qish fanidan bir soatlik  
namunali dars  
bayonnomasi*

# **Mavzu: Mangulikka tatigulik kun**

## **Safar Barnoyev**

### **Maqsad:**

**Ta'limiylar maqsad:** o'quvchilarga O'zbekiston mustaqil davlat ekani, davlat mustaqilligining asosiy belgilari, o'tgan davr mobaynida xalqimiz murakkab va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgani, turli sinov va qiyinchiliklarga qaramasdan, hal qiluvchi tarixiy vaziyatlarda birlashib, bir musht bo'lib maydonga chiqqani, mustahkam irodasi, qat'iyat va matonat, yuksak insoniy fazilatlarni namoyon etishga erishganini o'quvchilar ongiga yetkazish;

**Tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash. Asar orqali o'quvchilarga aqliy, estetik, milliy tarbiya berish;

**Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularda milliy g'urur, iftixon tuyg'ularini rivojlantirish;

**DTS talabi:** She'rni ifodali, ravon o'qiy bilish.

**Dars jahozi:** Muhammad Yusuf, Cho'lpon, Usmon Nosir suratlari, 9-may Xotira va Qadrlash kuni aks ettiruvchi rasmlar.


**Dars usuli:** Suhbat, savol-javob.






*Yagonasan, muqaddas  
Vatanim, sevgi va sadoqatim  
senga baxshida, go'zal  
O'zbekistonim!*





O'ZBEKISTON — OZOD, OBOD DIYOR.  
1- SENTABR — MUSTAQILLIK KUNI





**Mustaqillik, kuylayaman seni  
Bor ovozim, kuylarim bilan,  
Mustaqillik, asarayman seni  
Kerak bo'lsa, qo'llarim bilan.**

**Mustaqillik, kuylayman seni  
Bor san'atim, hayotim bilan.**

**Mustaqillik, asrayman seni  
kerak bo'lsa, hayotim bilan.**

Inson tug`ilib o`sgan joy, kindik qon to`kilgan dargoh Vatandir. Vatan inson uchun eng aziz, eng mo`tabar, eng muqqadas joy. Har kim tug`ilib o`sgan yerini jonidan ortiq suyar. O`zbekiston – yer yuzining jannati. U bizning jonajon Vatanimizdir. Bu go`zal diyorni kuylamagan shoir bormikan? Vatan ozod va obod bo`lsa, uning bog`lari fayzli, odamlari baxtli bo`ladi. Vatan ozodligi va mustaqilligi har bir farzand uchun muqqadas. Shu sababli, Vatanimizning istiqlolga erishgani dilga o`zgacha quvonch bag`ishlaydi. Axir, mana 23 yildirki Vatanim mustaqil fikrlashga, o`z taqdirini, hayotini o`zi belgilashga qodir ekanligini dunyo ahlining e`tiboriga sazovor bo`lib kelmoqda. Bu his-tuyg`ular dilimizda iftixor uyg`otadi.

***Mustaqillik bayramingiz  
muborak bo'lsin!!!***

*Maqsad:* O`quvchilarda vatanparvarlikni singdirish, ona-yurtimiz O`zbekistonimizning yuksalishiga munosib hissa qo`sish har bir farzandning burchi ekanligini uqtirish .

*Natija:* O`quvchilarining erkin fikrlashi, tassurotlari va olgan xulosasi.

*Foydalanadigan ko`rgazmali qurollar:* O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning: “Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch”, “O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, Ma’naviyat qalbim quyoshi, shiorlar, plakatlar, devoriy gazetalar, slaydlar, tarqatma materiallar.

*Doskada:*

O, sen Vatan, kindik qoni tomgan joy

Seni so`rmay, ko`rmay bo`lurmi?

Ko`z ko`rgani yoshu qarining –

Ona bag`rin sevmay bo`lurmi?

Abdulla Oripov

O`qituvchi:

Jahon keng, dunyoda mamlakatlar ko`p, lekin bu olamda betakror ona-yurtimiz – O`zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. Bu go`zal yurt, bu go`zal zamin faqat bizga ato etilgan. Mana shu ulug` tuyg`i har birimizning dilimizga jo bo`lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishi lozim ( Islom Karimov)

O`zbekiston- kelajagi buyuk davlat. Bu-mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e`tiqodlaridan qat`i nazar fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini ta`minlab beradigan davlatdir.

O`zbekiston zaminida mavjud bo`lgan boyliklarga ega davlatlar jahon xaritasida ko`p emas. O`zbekiston o`z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi- bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan.

Oltin zaxiralari bo`yicha O`zbekiston dunyoda 4-o`rinda, uni qazib olish bo`yicha 7-o`rinda, mis zaxiralari bo`yicha 10-11-o`rinda, uran zaxirasi bo`yicha 7-8-o`rinda turadi.

(Islom Karimov. O`zbekiston buyuk kelajak sari. O`zbekiston.1999)

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirlar bor, o'z yurtin butun -  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'reti uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyor,  
Bir o'lka bor dunyoda, biroq  
Bitilmagan dostondir bori:  
Faqat ojiz qalamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasman hech behishtni izlab,  
Topolmasam chekmasman alam.  
O'tirmasman ertaklar so'zlab,  
Musallo deb yo'nmasman qalam.  
Ko'klamingdan olib sururni,  
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,  
G'afur G'ulom tuygan g'ururni  
Qilmoq mumkin dunyoga doston.  
Olis tarix qadamim manim,

O'zbekiston, Vatanim manim.  
  
Kechmishing bor chindan ham uzoq,  
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.  
Maqtamasman moziyni biroq,  
O'tmishingni o'ylayman bir zum.  
Zabtga olib keng Osiyoni,  
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,  
Ikki asr yarim dunyoni  
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.  
Aytgum, bu kun, u manim, manim.  
O'zbekiston, Vatanim manim.  
  
Bobolardan so'z ketsa zinhor,  
Bir kalom bor gap avvalida.  
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor  
Ko'ragoniy jadvallarida.  
Qotil qo'li qilich soldi mast,  
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.  
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,

U, Ulug'bek ko'zidagi yosh.  
Yerda qolgan, o, tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.  
  
Ko'z oldimdan kechar asrlar,  
Ko'z-ko'z etib nuqsu chiroyin.  
Sarson o'tgan necha nasllar,  
Topolmasdan tug'ilgan joyin.  
Amerika - sehrli diyor,  
Uxlar edi Kolumb ham hali,  
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,  
Beruniyning aql mash'ali.  
Kolumbdan bor alamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Zar unadi tuproqlarida,  
Hayot kular quchoqlarida,  
Jannat oqar gulbog`larida,  
Biling, bu yurt O`zbekistondir!

Dillarida duolari bor,  
Daholari, donolari bor,  
Kelajakka nidolari bor,  
Biling, bu yurt O`zbekistondir!

Ha, shoir aytganidek, ona – yurtimiz O`zbekistonimiz Olloh nazari tushgan jannatmakon yurtdir. Mustaqillikka erishganimizdan so`ng, yurtboshimiz tomonidan milliy istiqlol mafkurasingin asosiy g`oyalaridan biri Vatan ravnaqi edi. Vatan ravnaqi yo`lida misli ko`rilmagan darajada yurtboshimiz me`morchiligi asosida ishlar qilindiki, ularni sanab adog`iga yetolmaymiz, bu ishlar, rivojlanishlar hammasi yurt uchun va insonlar manfaati uchun qilinayotgan o`zgarishlardir. Respublikamiz poytaxtidan tortib, chekka qishloqlarida ham bugungi taraqqiyot o`zgarish, yuksalish, obodonlashtirishni ko`ramiz.

*Topshiriq:* Bayram munosabati bo`lganligi uchun ko`tarinki, kayfiyat ila o`quvchilardan ona-yurtimiz O`zbekistonimizni madh etuvchi she`r va qo`shiqlardan yod olish.